



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 453 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макроэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalarini investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
Soliev Istam Ixtiyorovich	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari	197
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....	202
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....	209
Qosimova Lola Sultanovna	
Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	217
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
Soliq ma'murchiligiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali qo'shilgan qiymat soliq ma'murchiligi bazasini kengaytirish yo'llari	222
Raxmonqulov Umidjon Rustam o'g'li	
Инновационные подходы к созданию проблемно-ориентированной системы прогнозирования, оптимизации и управления отраслями региональной экономики (жилищное строительство)	231
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Tovar-moddiy resurslar harakati samaradorligini oshirishda UZEX faoliyatining joriy holatini baholash.....	238
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Mamatkulov Farrux Gulomjon o'gli	
Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining turlari	244
Solikhova Dildora Alisher qizi	



“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” ajning asisii faoliyatini samaradorligini oshirishda autsorsing xizmatini joriy etish strategik asoslari	250
Kaxarova Nilufar Yerkinjonovna	
Mintaqani kompleks rivojlantirishning metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari.....	256
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
Sog‘liqni saqlash tashkilotarida xarajatlar samaradorligini ta‘minlash masalalari	260
Raximova Maftuna Axmadjon qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida sof foydani taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan soliq solish masalalari	264
Suyunov Otabek Shuxrat o‘g‘li	
O‘zbekiston qonunchiligida raqamli transformatsiya jarayonida elektron to‘lov kartalarini soxtalashtirishni jinoyatlashtirish	276
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
Mamlakatimizda intellektual xizmatlar bozorini rivojlantirish masalalari.....	281
Miyassarov Davron Abdurashid o‘g‘li	
Validation of the dutch eating behaviour questionnaire (DEBQ) in a sample of uzbek women.....	285
Khursana Usmanova, Dr Muhammad Bilal, Dilafuz Qo‘chqorova	
Iqtisodiy xavfsizlik tizimlarini o‘ziga xos jihatlari	295
Nabiyev Bexzod Shavkatovich, Bayboboeva Firuza Nabijonovna	
Davlat qarz siyosatini optimallashtirishda islomiy moliya instrumentlarining qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirish yo‘nalishlari	299
Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	
Роль институциональных структур фондового рынка в обеспечении финансовой стабильности.....	305
Камилова Севара Анваровна	
The Impact of Digitalization on the Management System in the Entrepreneurial Environment of Uzbekistan.....	309
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
China’s Investment Strategy in Uzbekistan: Sectoral Trends and Strategic Implications (2013–2024).....	313
Maftuna Nuriddinova	
Qo‘shilgan qiymat solig‘i tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati	319
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
Raqamli boshqaruvning afzalliklari va uni rivojlantirish istiqbollari	324
Xolbayeva Marg‘uba Qazoqboyevna	
Korporativ boshqaruvning nazariy asoslari: O‘zbekistonda qo‘llanish imkoniyatlari.....	328
Jumayeva Guzal Sherxon qizi	
Audit organizations in Uzbekistan	332
Razzaqov Jasur Xamraboevich, Yaqubov Matrasul Mavlonberdiyevich, Sabirova Nodira Komil qizi	
Xorijiy investitsiyalarning turlari va xususiyatlari	337
Gofurov Doston Boxromovich	
Mahalliy budjet mablag‘larining samaradorligini oshirishda auditning o‘rni.....	341
Primova Shaxnoza Komiljonovna	
Модели управления государственными финансами в зарубежных странах.....	345
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
O‘zbekistonning sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishi: yashil o‘sish indikatorlari tahlili	352
Hakimov Anvarjon Abdulloyevich	
Innovation management in the education system: practical challenges, international experience, and effective strategies based on the example of Uzbekistan.....	356
Imomov Inomiddin Abdulxamidovich, Egamberdiyev Farxod Botirovich	
Трансформация энергетического комплекса Узбекистана: текущее состояние и перспективы развития	363
Хмель Е.В., Мирджалилова Д.Ш., Дерюгина Е.А., Лозовская Н.А.	



Improving the efficiency of personnel management and optimizing labor costs in Sam Glass LLC.....	368
Musayeva Shoirazimovna, Agzamov Avazkhon Talgatovich	
Interactive design and museum management: enhancing guided tours through IOT and virtual solutions.....	374
Ibrokhimova Aziza Abbasovna	
Hududlar investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	379
Imomova Kamola Novfal qizi	
"Innovatsion usulda baliq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari (Sirdaryo tumani misolida)"	385
Bo'ltakov Sardor Oqbo'ta o'g'li	
Bank filial tarmoqlari samaradorligini baholashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekiston banklari amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	392
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Zamonaviy iqtisodiyotda davlat xaridlarinin elektron savdolarining o'rni	398
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Реализация концепции развития рынка зеленой экономики в сфере экономической безопасности Республики Узбекистан.....	401
Юнусова Римма Рахманбердиевна	
Tijorat banklaridan "foyda" solig'ini undirishning bugungi holati.....	408
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
O'zbekiston oziq-ovqat sanoatini iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari	415
Abasova Gulirano Rahmatullo qizi	
Xorijiy tajribalar asosida ekologik tadbirkorlikning innovatsion va investitsion yo'nalishlarini tashkil etish	419
Turg'unova Tursunoy Maratovna	
Sanoat korxonalari jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasini amalga oshirish xususiyatlari	424
Raxmonova Feruza Musakulovna	
Turizm sohasida investitsion faoliyat: nazariy asoslar va amaliy yo'nalishlar.....	428
Ergashev Durdonaxon Aziz qizi	
Qashqadaryo viloyatida barqaror turizmning rivojlanish tendensiyalari va mavjud muammolar tahlili.....	432
Suyunova Dilnoza Mexridin qizi	
Iqtisodiy rivojlanish jarayonida investitsion resurslarning mutanosib taqsimlanishi: samaradorlik va ustuvor yo'nalishlar.....	436
Otaboyev Feruzbek Oybek o'g'li	
Xususiyy banklar faoliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning moliya bozoriga ta'siri	441
Abduqahhorov Asilbek Ahror o'g'li	
Mehnat resurslari tushunchasi, tarkibi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	447
Kobilova Zebo Bobokulovna	



MEHNAT RESURSLARI TUSHUNCHASI, TARKIBI VA UNING IJTIMOYIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Kobilova Zebo Bobokulovna

Termiz davlat universiteti, "Iqtisodiyot" kafedrasining mustaqil izlanuvchisi

Email: zebokabilova2003@mail.ru

ORCID: 0009-0003-8400-5801

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehnat resurslari tushunchasi, ularning tarkibiy tuzilishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati atroflicha yoritilgan. Mehnat resurslari mamlakatning eng muhim ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida nafaqat iqtisodiy jarayonlarning barqarorligini ta'minlaydi, balki ijtimoiy rivojlanish darajasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, mehnat resurslaridan oqilona va samarali foydalanish bozor iqtisodiyotining barqarorligi, ishchi kuchi bozorining rivojlanishi, aholining bandligini ta'minlash va turmush darajasini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Maqolada, shuningdek, demografik omillar, iqtisodiy faol aholining tarkibiy o'zgarishlari hamda ishsizlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Mehnat resurslari, ishchi kuchi, mehnatga layoqatli aholi, bandlik, ishsizlik, mehnat bozorini rivojlantirish, demografik omillar, iqtisodiy faol aholi.

Abstract: This article provides a comprehensive overview of the concept of labor resources, their structural composition, and socio-economic significance. Labor resources are examined as one of the most important production factors that not only ensure the stability of economic processes but also directly influence the level of social development. From this perspective, the rational and efficient use of labor resources is considered a key condition for maintaining the stability of the market economy, developing the labor force market, ensuring population employment, and improving living standards. The article also analyzes the interrelation between demographic factors, structural changes in the economically active population, and unemployment indicators.

Key words: labor resources, workforce, working-age population, employment, unemployment, labor market development, demographic factors, economically active population.

Аннотация: В данной статье подробно освещены понятие трудовых ресурсов, их структурное содержание и социально-экономическое значение. Трудовые ресурсы рассматриваются как один из важнейших факторов производства, обеспечивающих не только устойчивость экономических процессов, но и напрямую влияющих на уровень социального развития. В этой связи рациональное и эффективное использование трудовых ресурсов является важным условием стабильности рыночной экономики, развития рынка рабочей силы, обеспечения занятости населения и повышения уровня жизни. Кроме того, в статье анализируются взаимосвязи между демографическими факторами, структурными изменениями экономически активного населения и показателями безработицы.

Ключевые слова: трудовые ресурсы, рабочая сила, трудоспособное население, занятость, безработица, развитие рынка труда, демографические факторы, экономически активное население.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi va samarali faoliyat yuritishi, eng avvalo, inson omiliga, ya'ni mehnat resurslariga bog'liqdir.

Mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilayotgan moddiy va nomoddiy boyliklar, innovatsion g'oyalar hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning sifat ko'rsatkichlari bevosita mehnat resurslari salohiyatidan kelib chiqadi.

Mehnati resurslari tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra iqtisodiy faol aholini, mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolarni, ishlab chiqarishda faol ishtirok etayotgan yoki potensial tarzda mehnat faoliyatiga qo'shila oladigan kishilarni qamrab oladi.



Mehnat resurslarining tarkibi ko'plab ijtimoiy-demografik omillar bilan belgilanadi. Aholining soni, yoshi, jinsiy tarkibi, sog'liq holati, ta'lim darajasi, kasbiy malakasi hamda hududiy taqsimoti ushbu resurslarning sifat va miqdor jihatdan shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Mehnat resurslarining samarali boshqarilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish va aholi turmush darajasini yaxshilashda muhim o'rin tutadi.

Bugungi globallashuv va ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida mehnat resurslarining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Mehnat migratsiyasi, bandlik darajasi, ishsizlik muammosi, hududlararo mehnat resurslari taqsimotidagi nomutanosiblik, inson kapitali sifatini oshirish zaruriyati kabi omillar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasida muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu boisdan ham mehnat resurslarini samarali shakllantirish, ulardan oqilona foydalanish va ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga keng jalb etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sanaladi.

Mehnat resurslaridan samarali foydalanish orqali yangi ish o'rinlari yaratish, aholining bandligini ta'minlash, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash hamda hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish mumkin. Shu nuqtai nazardan, mehnat resurslari tushunchasi, ularning tarkibi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilish bugungi kunning dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mehnat resurslari tushunchasi iqtisodiyot nazariyasida markaziy kategoriya bo'lib, u inson omilini ishlab chiqarishning asosiy resursi sifatida ko'rsatadi.

Klassik ta'riflarda mehnat resurslari mehnatga layoqatli yoshdagi aholi va ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslar majmuasi sifatida ifodalanadi.

Biroq zamonaviy adabiyotlarda bu tushuncha yanada kengaytirilgan bo'lib, inson kapitali - ya'ni ta'lim, sog'liq, kasbiy malaka va innovatsion ko'nikmalar mehnat resurslarining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi.

Mehnat resurslari tarkibi odatda ikki yo'nalishda o'rganiladi.

Birinchisi, kvantitatif tarkib - mehnatga layoqatli aholining soni, yosh-jinsiy tuzilmasi, urbanizatsiya darajasi va mehnat migratsiyasi jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Ikkinchisi, sifat tarkibi - ta'lim darajasi, malaka, sog'liq holati, mehnat unumdorligi va texnologik yangiliklarga moslashish salohiyati bilan belgilanadi. Shu sababli mehnat resurslarini faqat son ko'rsatkichlari bilan emas, balki sifat jihatidan baholash ham zarur.

Uchinchidan, ular ijtimoiy barqarorlikka ta'sir etuvchi omil bo'lib, daromadlar taqsimoti, bandlik darajasi va ijtimoiy tenglik ko'rsatkichlarini shakllantiradi.

Masalan, D. Acemoglu va P. Restrepo tadqiqotlarida (2020) sanoat robotlari ishchi kuchi strukturasiga jiddiy ta'sir qilgani, ba'zi sohalarida bandlikni kamaytirgani qayd etiladi. McKinsey Global Institute (2017) esa texnologik o'zgarishlar natijasida yuz millionlab ishchilarning yangi ko'nikmalarni egallashi zarurligini ta'kidlaydi [1].

Xalqaro adabiyotda «mehnat resurslari» tushunchasi keng - u mamlakat yoki hududning ishga layoqatli aholisi va ularning iqtisodiy faoliyatga qo'shayotgan salohiyati, ya'ni inson kapitali, kasbiy malaka, sog'liq va bandlik holatining yig'indisi sifatida ko'riladi. Bu yondashuv mehnatni faqat mavjud ishchi soni sifatida emas, balki uning sifat jihatlari (ta'lim, tajriba, sog'liq) ham muhim ekanini ta'kidlaydi [2].

Nazariy asoslar: inson kapitali va mehnat bozorining ekonomik modeli Theodore W. Schultz (1961) va Gary S. Becker (1964/1975) inson kapitalini - ta'lim, sog'liq va treninglar orqali shakllanadigan va daromad keltiruvchi investitsiya deb tavsiflashadi [3].

Mehnat resurslari tarkibi va tasnifi (strukturaviy yondashuv) Xalqaro metodologiyada mehnat resurslari tarkibi quyidagi elementlar orqali ifodalanadi:

- segmentlar - yosh va jinsi;
- bandlik holati - band, ish qidirayotgan, norasmiy bandlik;
- sektoriyal taqsimot - qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmatlar;
- inson kapitali komponenti - ta'lim darajasi, kasbiy malaka;
- migratsion va geografik komponentlar ;

- hududiy ko'chish va xalqaro migratsiya. OECD va ILO kabi tashkilotlar bu elementlarni monitoring qilish uchun aniq statistik indikatorlar va tavsiyalar ishlab chiqqan, bu esa mehnat resurslari strukturasida siyosatni maqsadga muvofiq shakllantirishni ta'minlaydi. [4]

“Mehnat resurslari” atamasi milliy iqtisodiyotda inson mehnatining jamlanmasi sifatida 20-asr boshlarida shakllana boshlagan; sovet akademigi S. G. Strumilin bu tushunchani tizimli ravishda iqtisodiy tahlilga kiritgan va uni milliy iqtisodning “tirik ishchi kuchi” - asosiy ishlab chiqarish omili sifatida ta'riflagan [5].



Jumladan, M. G'ulomovning fikricha, mehnat resurslari – bu ishlab chiqarishda qatnashish salohiyatiga ega bo'lgan mehnatga layoqatli aholining umumiy yig'indisidir [6]. Bu ta'rifdan kelib chiqib, mehnat resurslari nafaqat ishchi kuchi sonini, balki ularning malaka darajasi, kasbiy tarkibi va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etilish imkoniyatlarini ham o'z ichiga oladi.

Sh. Shodmonov va H. Abdurahmonov tadqiqotlarida mehnat resurslarining tarkibi ikki asosiy toifaga ajratiladi: iqtisodiyotda band bo'lganlar va band bo'lmagan, ammo ishlash imkoniyatiga ega aholining qismlari (talabalar, uy bekalari, vaqtincha ishlamaydiganlar) deb ta'kidlaydi. [7]. Ularning tahliliga ko'ra, mehnat resurslarining sifat ko'rsatkichlari – ta'lim darajasi, kasbiy tayyorgarlik, salomatlik holati – iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta'sir qiladi.

I. Jo'raev mehnat resurslarini jamiyatning eng muhim ishlab chiqarish omili sifatida ko'rib, ularning samarali taqsimlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlaydi [8].

B. Akbarova mehnat resurslarining hududlar kesimidagi taqsimotini o'rganib, yosh tarkibidagi nomutanosibliklar hamda migratsiya jarayonlari sababli ayrim hududlarda ishchi kuchi ortiqcha, boshqalarida esa yetishmovchilik kuzatilishini qayd etadi [9].

M. Abdullayeva fikricha, ta'lim tizimidagi islohotlar, malaka oshirish kurslari va raqamli ko'nikmalarni shakllantirish bozor talablariga moslashuvchan mehnat resurslari shakllanishida muhim rol o'ynaydi [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhlash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat iqtisodiy salohiyatining asosiy omillaridan biri sifatida mehnat resurslari alohida o'rin tutadi. Mehnat resurslari nafaqat ishlab chiqarish jarayonining zaruriy tarkibiy qismi, balki iqtisodiy o'sishning bevosita harakatlantiruvchi kuchidir. Ularning miqdoriy va sifat jihatdan shakllanishi demografik jarayonlar, aholining yosh-jins tarkibi, ta'lim va kasbiy malaka darajasi, shuningdek, sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy himoya tizimlarining samaradorligiga bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston sharoitida mehnat resurslarini to'g'ri baholash va ularning iqtisodiyotdagi rolini aniqlash ahamiyatlidir.

Mamlakatda mehnat resurslari tarkibining o'ziga xos jihatlari mavjud: yoshlarning ulushi yuqori, bandlik strukturasi hududlar kesimida farqlar kuzatiladi, migratsiya jarayonlari esa mehnat bozori muvozanatiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu sababli mehnat resurslarining mavjud imkoniyatlari, tarkibi va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval. Mehnat resurslar soni (ming kishi)

Klassifikator	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	18949	19158,2	19334,9	19517,5	19739,6	20085,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1063	1074,7	1066,1	1067,6	1072,6	1098,6
Andijon viloyati	1741,7	1754,8	1745,3	1780,8	1799,6	1807,4
Buxoro viloyati	1081	1067,1	1072,3	1074,7	1089,2	1085,3
Jizzax viloyati	764,1	773,8	782,6	791	799,4	802
Qashqadaryo viloyati	1813,8	1809,8	1811	1813,4	1826,7	1888,5
Navoiy viloyati	555,8	555,2	564,5	570,6	584,5	597,4
Namangan viloyati	1573,9	1580,4	1586,1	1588,3	1603,9	1632,4
Samarqand viloyati	2117,1	2125,2	2122	2164,8	2167,6	2190,9
Surxondaryo viloyati	1456,9	1452,2	1464,6	1465,4	1486	1515,8
Sirdaryo viloyati	484,5	485	489,4	487,4	492,2	503,2
Toshkent viloyati	1607,3	1615,4	1622,5	1619,2	1640,7	1671,6
Farg'ona viloyati	2052,1	2069,3	2083,9	2097,8	2121,7	2143,3
Xorazm viloyati	1029,6	1044,8	1047,1	1050,9	1064,3	1080,3
Toshkent shahri	1608,2	1750,5	1877,5	1945,6	1991,2	2068,5



1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2019–2024 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha mehnat resurslari soni barqaror o'sib borgan. Agar 2019-yilda bu ko'rsatkich 18,9 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib u 20,1 mln kishiga yetgan.

Hududlar kesimida Toshkent shahri eng yuqori o'sish sur'atini ko'rsatgan: 2019-yildagi 1,6 mln kishidan 2024-yilda 2,07 mln kishiga yetgan. Farg'ona (2,05 mln dan 2,14 mln gacha) va Samarqand viloyatlari (2,12 mln dan 2,19 mln gacha) ham mehnat resurslari bo'yicha yetakchi hududlar hisoblanadi.

Boshqa viloyatlarda o'sish nisbatan barqaror, ayrim hollarda esa pasayish ham kuzatilgan. Masalan, Buxoro viloyatida 2019-yilda 1,08 mln kishi bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda deyarli o'zgarmagan (1,08 mln kishi atrofida). Qashqadaryoda esa 2019–2022 yillarda deyarli barqaror bo'lgan ko'rsatkich 2024-yilda sezilarli oshib, 1,89 mln kishiga yetgan.

O'zbekiston mehnat resurslarining asosiy o'sish manbai Toshkent shahri va yirik aholiga ega viloyatlar (Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo) hisoblanadi. Ayrim hududlarda esa resurslar sonining sekin o'sishi yoki deyarli barqarorligi demografik o'zgarishlar va migratsiya jarayonlari bilan izohlanishi mumkin (2-jadval).

2-jadval. Iqtisodiy faol aholi soni (ming kishi)

Klassifikator	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	14876,4	14797,4	14980,7	15038,9	15038,3	15097,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	782,2	790	781,5	786,1	791,8	805,8
Andijon viloyati	1413,9	1376,5	1403,1	1427,3	1429,7	1415,5
Buxoro viloyati	875,4	881,9	862,2	856,4	858,8	841,8
Jizzax viloyati	590,3	600,1	612,6	602,7	597,4	593,8
Qashqadaryo viloyati	1345,3	1317,9	1339,5	1331,5	1316,6	1377,2
Navoiy viloyati	450,9	440,9	450,2	445,8	455	457,7
Namangan viloyati	1214,7	1217,2	1224,1	1208,5	1214	1228,2
Samarqand viloyati	1604,2	1592,9	1599,7	1632,3	1611	1607,5
Surxondaryo viloyati	1128,8	1108,3	1115,8	1109,9	1091,8	1089,5
Sirdaryo viloyati	385,9	373,4	372,1	369,5	364,8	373,1
Toshkent viloyati	1353,5	1315,8	1348,6	1321,4	1325,4	1327,9
Farg'ona viloyati	1644,8	1625,7	1648,8	1665,6	1674,2	1664,4
Xorazm viloyati	810	804,5	806,4	815,5	831,4	824,1
Toshkent shahri	1276,5	1352,3	1416,1	1466,4	1476,4	1491,4

2-jadvalda O'zbekiston bo'yicha iqtisodiy faol aholi soni 2019-yilda 14,88 mln kishini tashkil etgan. 2020-yilda biroz pasayib, 14,80 mln kishiga tushgan, biroq keyingi yillarda asta-sekin ko'payib, 2024-yilda 15,10 mln kishiga yetgan.

Umumiy o'sish davr mobaynida 220 ming kishini tashkil etib, bu mehnat bozorida barqarorlikni ko'rsatadi.

Respublika miqyosida iqtisodiy faol aholi soni barqaror o'sib bormoqda, lekin o'sish sur'ati yuqori emas. Eng katta pasayish: Buxoro, Surxondaryo, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida.

Eng yuqori o'sish: Toshkent shahri va qisman Qashqadaryo, Farg'ona hamda Xorazm viloyatlarida. Hududiy tafovutlar mehnat bozoridagi migratsiya, iqtisodiy imkoniyatlar va demografik omillar bilan izohlanadi (3-jadval).

3-jadval. Aholining bandlik darajasi (ming kishi)

Klassifikator	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	13541,1	13236,4	13538,9	13706,2	14014,2	14260
Qoraqalpog'iston Respublikasi	711,3	707,4	702,6	714,2	735,5	750,8
Andijon shahri	191,9	188,9	190,1	189,7	196,1	182,8
Buxoro viloyati	797,1	788	777,3	780,6	803,2	807,8
Jizzax viloyati	536,2	534,3	550,7	546,4	553,9	564,5
Qashqadaryo viloyati	1220	1171	1202,5	1207,3	1220,1	1296,2
Navoiy viloyati	412,7	399,4	410,4	410,1	426,4	432,6



Namangan tumani	72,9	72,9	73,1	72,7	73,5	77,6
Samarqand viloyati	1455,8	1418,3	1441,3	1479,8	1504,2	1521,4
Surxondaryo viloyati	1024,2	985,5	1001,9	1006,3	1011,2	1018,7
Sirdaryo viloyati	350,1	332,2	334,1	335	338	351,1
Toshkent viloyati	1232,9	1177,2	1222,1	1204,5	1234,9	1251,2
Toshkent tumani	79,1	74,7	73,4	74,6	76,8	77,7
Farg'ona viloyati	1492,6	1448,6	1483,3	1511,7	1555,4	1565,9
Xorazm viloyati	736,5	716,4	726,4	741,8	776,5	782,7
Toshkent shahri	1182,6	1243,5	1317,2	1371,1	1396,8	1410,3

3-jadval O'zbekiston Respublikasida band aholining umumiy soni 2019-yildagi 13,5 mln kishidan 2024-yilda 14,26 mln kishiga oshgan. Respublika bo'yicha band aholining soni barqaror ortib bormoqda. Samarqand, Farg'ona, Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyatlari band aholining eng ko'p qismini tashkil etmoqda. Andijon shahri va Sirdaryo viloyatida esa bandlik deyarli o'smagan yoki qisqargan. Hududlar o'rtasidagi tafovut bandlik siyosatini hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda olib borish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida sanoat va qurilish tarmoqlarining roli kuchayib bormoqda, bandlar ulushi yildan-yilga ortmoqda. 2020-2024 yillarda strukturaviy siljishlar mehnat bozorida iqtisodiyotning diversifikatsiyalashayotganini ko'rsatadi: qishloq xo'jaligiga nisbatan sanoat va xizmatlar sektori ahamiyati oshib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyoti tarkibiy islohotlar bosqichida bo'lib, mehnat resurslari-mamlakatning iqtisodiy salohiyati va ijtimoiy rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

O'zbekiston sharoitida mehnat resurslarining hajmi yildan-yilga ortib bormoqda, ammo ularning hududiy va tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi notekisdir. Toshkent shahri, Samarqand, Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlarida mehnat resurslari ko'proq jamlangan bo'lsa, ayrim kichik hududlarda ularning salmog'i ancha past.

Shuningdek, iqtisodiy faol aholining o'sishi bilan bir qatorda, iqtisodiy nafaol aholining ham ortib borishi kuzatilmog'ida.

Shu asosda, quyidagi asosiy xulosa va takliflarni ilgari surish mumkin:

-mehnat resurslari notekis taqsimlangan hududlarda (masalan, Sirdaryo, Navoiy, Qoraqalpog'iston) kichik sanoat zonalarini, xizmat ko'rsatish markazlari va qishloq

yoshlarning zamonaviy kasblarga o'qitilishini kuchaytirish, ayniqsa, IT, muhandislik, logistika va xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida malaka oshirish markazlarini kengaytirish lozim;

-mehnat migratsiyasini tartibga solish, xorijda ishlayotgan fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va ularning mamlakatga qaytib kelgach, kasbiy tajribasidan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur;

-oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik va kichik biznesni rivojlantirish orqali ijtimoiy jihatdan zaif guruhlarning mehnat bozoriga kirib kelishini qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, mehnat resurslari mamlakat iqtisodiy o'sishi, aholining daromadlari, ijtimoiy barqarorlik va farovonlikning ta'minlanishida bevosita hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ulardan oqilona foydalanish, ularning malaka darajasini oshirish va samarali bandlikni ta'minlash O'zbekiston taraqqiyotining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Acemoglu, D., Restrepo, P. Robots and Jobs: Evidence from US Labor Markets // Journal of Political Economy. 2020. Vol. 128, No. 6. P. 2188-2244.
2. Becker G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. 2nd ed. New York: National Bureau of Economic Research; Distributed by Columbia University Press, 1975.
3. Schultz T. W. Investment in Human Capital // American Economic Review. 1961. Vol. 51, No. 1. P. 1-17. la.utexas.edu
4. Mincer J. Schooling, Experience, and Earnings. - New York: National Bureau of Economic Research, 1974. (The Human Capital Earnings Function).
5. Струмилин С. Г. Наши трудовые ресурсы и перспективы // Хозяйственное строительство.-1922.-Вып. 32-46. (исторический источник о формировании понятия «трудовые ресурсы»).
6. G'ulomov, M. Mehnat resurslari va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni // Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim. 2019. №2. B. 45-52.
7. Shodmonov, Sh. Sh., Abdurahmonov, H. Mehnat iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 312 b.



8. Jo'raev, I. O'zbekistonda mehnat resurslaridan samarali foydalanish muammolari Toshkent: // Moliyaviy tahlil jurnali. 2021. №3.B. 60-68.
9. Akbarova, B. Hududlar kesimida mehnat resurslari taqsimoti va bandlik masalalari // Toshkent: Ijtimoiy fanlar jurnali. 2022. T. 3, №24. B. 204-212.
10. Abdullayeva, M. Inson kapitalini rivojlantirish va mehnat resurslari sifatini oshirish // Moliyaviy tahlil jurnali – Toshkent: 2023. 01.06. B. 112–119.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
